

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:

Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:

Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
CHOCH VA ELOQ VOHASI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI
O'RGANILISH TARIXIDAN

Ilmiy rahbar: t.f.n. (PhD), dos., *F.E.Toshboyev,*
L.Z. Mamajonov - JDPI, ijtimoiy- gumanitar
fanlarni o'qitish metodikasi
(Tarix) 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent vohasida tadqiqotchi olimlar tomonidan olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida antik va ilk o'rta asrlarga oid ma'lumotlar tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent vohasi, Choch, Eloq, Antik davr, ko'chmanchilar, Qovunchi madaniyati, Yu.F. Buryakov, T. Agzamxo'jaev, B.I. Isabekov, Ohangaron.

Аннотация: В данной статье анализируются данные древности и раннего средневековья в результате археологических раскопок, проведенных исследователями в Ташкентском оазисе.

Ключевые слова: Ташкентский оазис, Чач, Элок, Античность, кочевники, Бахчевая культура, Ю.Ф. Буряков, Т. Агзамходжаев, Б.И. Исабеков, Охангарон.

Annotation: This article analyzes the data of antiquity and the early Middle Ages as a result of archeological excavations carried out by researchers in the Tashkent oasis.

Keywords: Tashkent oasis, Chach, Eloq, Antiquity, nomads, Melon culture, Yu.F. Buryakov, T. Agzamkhojaev, B.I. Isabekov, Ohangaron.

Toshkent vohasidagi antik davrga oid yodgorliklarda o'rganilgan moddiy ashyolarda antik va ilk o'rta asrlarda kirib kelgan qabilalar moddiy va ma'naviy madaniyatiga mansub xususiyatlar kuzatiladi. Shahar aholisi gavjumlashib hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan. Bu paytda O'rta Sirdaryo bo'yi mintaqasida mahalliy an'analar asosida tayyorlangan ashyoviy manbalarda sifat o'zgarishlari kuzatilib, ko'chmanchilarga xos xususiyatlar, ba'zan esa to'liq ko'chmanchilarga ta'lluqli buyumlar uchray boshlaydi. Buni o'lka xalqlari uy ro'zg'or buyumlaridan tortib, dafn udumlarigacha bo'lgan barcha sohalarda kuzatish mumkin. Bu holat, Qovunchi madaniyatining Toshkent vohasi xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatidan keng o'rin egallaganligini ko'rsatadi.

Toshkent vohasini arxeologik o'rganish tarixida arxeolog olim Yu.F. Buryakovning xizmatlari katta. Ushbu olim tomonidan Ohangaron vodiysining qadimgi shahar va qishloqlari, mozorqo'rg'onlari, qadimgi ruda konchiligi va uni eritish bilan bog'liq yodgorliklar ilmiy o'rganilgan. Ushbu olim 1962 yilda Lashkarakda arxeologik qazishmalar olib boradi va bu yerda qadimgi

Тарих ва Жамият илмий журнали

ruda eritish qo'ralari mavjudligini aniqlaydi. Qo'shbuloq, Tog'berdi va Guldurama punktlaridagi ruda konlarini va ularning xususiyatlarni o'rganadi¹.

Yu.F. Buryakov Burchmulla mozorqo'rg'onlarini ham o'rganib ularni, mil.avv. VII-IV asrlar bilan belgilagan. Yuqori Ohangaron hududida yuqorida tavsiflagan ma'dan konlaridan tashqari yana Go'shtsoy, Kendirsoy, Qizilolmasoy, Samarchuk, Ko'kral va Namudlig'da qadimda o'zlashtirilgan metall ishlab chiqarish punktlari topilgan. Ularda ruda eritish qo'ralari, yon-atrofida toshqol uyumlari hamda metallurgiya ustaxonalari izlari topilgan ushbu hudud yaqin atrofidan terib olingan ko'tarma sopol idish materiallari tahliliga qaraganda, ularning aksariyati so'nggi antik davri va ilk o'rta asrlarga oid bo'lib, bu holat mazkur punktlar faoliyati shu davrlardan boshlanganligidan dalolat beradi².

Yuqori va O'rta Ohangaron vodiysining qadimgi va o'rta asrlarga oid qabr qo'rg'onlarini o'rganishda T. Agzamxo'jaevning ham hissasi kattadir. Uning ishlarida Ohangaronning yuqori qismida joylashgan Apartak qabr-qo'rg'onlari tosh uyumi ostida to'g'ri to'rtburchak shakldagi yer osti kameralari bo'lganligi, ular gumbazsimon shiftli, kameraga uzun tor yer osti yo'laklari orqali kirilganligi, qabrga marhumlar bilan birga sopol buyumlar, bronza, shisha va oltin munchoq hamda boshqa ashyolar qo'yilganligi aniqlangan³. Bu topilmalar arxeologik tahlilga ko'ra, ilk o'rta asrlar davriga tegishli ekanligi aniqlangan.

Ohangaron vodiysining yuqori va o'rta oqimiarxeologik yodgorliklari keyingi paytlarda B.I. Isabekov tomonidan izchil ravishda o'rganilmoqda⁴. Shu bilan birga Toshkent vohasi tarixi va madaniyati, arxeologik yodgorliklari asosida D. Normurodov⁵, tomonidan ilmiy tadqiqot va qazishma ishlari olib borilgan. Umuman, Ohangaronning yuqori qismida olib borilgan ko'pgina arxeologik izlanishlar dastlabki qidiruv xarakterida bo'lib, ro'yxatga olingan yodgorliklarda keng ko'lamlil arxeologik qazishmalar olib borilgan. Yodgorliklarni arxeologik o'rganilishi yangicha ilmiy qarashlarga ham sabab bo'lmoqda. Unga ko'ra Eloq vohasining poytaxti Tunkat emas, O'ralitepa o'rnida bo'lgan degan qarashlar asoslanmoqda⁶.

M.I.Filanovich tomonidan Toshkent vohasida shahar madaniyatining paydo bo'lishi borasida ko'plab tadqiqotlar olib boirlgan. Ko'p yillik ilmiy izlanishlari

¹ Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – М., 1974. – С. 28.

² Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. – М., 1974. С. 28.

³ Агзамхожаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I-VIII вв. н. э. Автореф. канд. дисс. Ташкент, 1966. С. 17.

⁴ Исабеков Б.И. Юқори Оҳангарон водийси кончилиқ соҳасининг археологик ўрганилиши // Музей ўтмиш ва келажак ўртасидаги кўприк. Илмий-амалий анжумани материаллари. – Ангрен. 2020. Б. 109.

⁵ Нормурадов Д.Р.Ташкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти (милоддан аввалги XIII-милодий XIII аср бошлари) Дис... тарих фани бўйича фалсафа доктори (PhD) – Тошкент, 2020.

⁶ Исабеков Б. Ўралитепа диний ибодат мажмуаси // “Олий таълимда ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишнинг долзарб масалалари” мавзусида илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. Б. 129.

Тарих ва Жамият илмий журнали

natijasida vohaning qadimgi moddiy madaniyatini o'zida jamlagan Burganlik madaniyatiga taalluqli Shoshtepa yodgorligi qatlamlaridagi o'zgarishlarni aniqlagan. Ularga tayanib, Qovunchi madaniyatining paydo bo'lishi haqida muhim ma'lumotlar beradi⁷. Unda, Burganlik madaniyatidan Qovunchi madaniyatiga o'tish bosqichlar aniqlangan. Shoshtepa-2 bosqichi, mil. avv. III-II asr boshlari bilan davrlanib, uning materiallarida mahalliy madaniyat ichida o'zgarish bo'lgan (sifat o'zgarmagan)ligi ta'kidlanadi⁸. Burganlik madaniyatidan Qovunchi madaniyatiga o'tishdagi yakuniy bosqich esa Shoshtepaning-3 etapi bo'lib, shu paytdan mahalliy madaniyat namunalarida ko'chmanchilarga xos o'zgarishlar paydo bo'lishi, olima tomonidan Qovunchi madaniyatining vujudga kelishi bilan bog'lanadi⁹. Shoshtepa yodgorligidagi o'zgarishlarga tayanib Toshkent vohasida yangi ko'rinishdagi madaniyatning shakllanib boshlashini mil. avv. II-I asrlar bilan belgilaydi.

Bu holat qo'shni Farg'ona vodiysidagi moddiy madaniyat namunalarida ham kuzatiladi. Bu paytda, Kug'ay-Qorabuloq madaniyati shakllanib boshlaydi va keyinchalik u bir-biridan farq qiluvchi uch bosqichni o'zida namoyon qiladi. Bu madaniyatga oid arxeologik materiallarda maxalliy an'analar bilan birgalikda, chorvadorlar, ayniqsa, O'rta Sirdaryo bo'yi hududi orqali siljigan qabilalar, shuningdek, yuechji qabilalarning ta'siri ham seziladi. Toshkent vohasida kuzatilgan bu madaniy ta'sir Ustrushona va Sug'd hududlarida ham seziladi.

Vohadagi Shoshtepa, Yangi yo'l, Qovunchitepa, Vrevskiy, Tuyabo'g'uz, Yangiyo'l qabrlaridan mozorqo'rg'onlarida o'rganilgan buyumlarda bir-biriga o'xshash xususiyatlar kuzatiladi. Muzorqo'rg'onlarning deyarli barchasida uy ro'zg'or (ular ko'pchiligi sopol idishlar), zeb-ziyat, jang qurollari va hayvonlar suyaklari qo'yish keng tarqalganligini ko'rish mumkin¹⁰. O'rganilgan mozorqo'rg'onlarga tegishli moddiy-madaniyat namunalarining aksariyati bizning davrimizgacha o'g'irlanmasdan yetib kelgan. Muzorqo'rg'onlardagi kulolchilik idishlari asosan jasad bosh tomoni va yoniga qo'yilgan bo'lib, ularning asosiy qismini ko'proq ko'chmanchilar dashtlarida uchraydigan, qo'lda yasalgan sopol idishlar tashkil etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan kulolchilik mahsulotlarida Qovunchi madaniyatining ta'siri kuchli seziladi. Toshkent vohasidagi Vorux va Qoramozor¹¹

⁷Филанович. М.И.Ташкент зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент, 1983. С. 38-44.

⁸ Филанович. М.И.Ташкент зарождение и развитие города и городской культуры... –С 132., Филанович. М.И. К интерпретации погребений в нижнем горизонте Шоштепы в Ташкенте // ИМКУ – Ташкент: 1991. –№ 25. – С.138.

⁹ Филанович М.М. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. – Ташкент: Узбекистан, 2010. С. 85.

¹⁰Агзамходжаев Т. Раскопки погребальных курганов близ станции Вревской // ИМКУ. – Тошкент: 1961. – № 2.

¹¹ Литвинский Б.А. Орудия труда и из могильников Западной Ферганы. – М.: Наука, 1978. –С. 19. Таб.1,3.

Тарих ва Жамият илмий журнали

mozorqo'rg'onlarida boshqa yodgorliklardan farqli ravishda metalldan ishlangan jang qurollari ko'pchilikni tashkil etadi. Xanjarlar tutqichida yog'och dasta izlari saqlanib qolgan. Xanjarlar shakli bir –biriga o'xshash bo'lib, tig'i uchiga tomon keskin qisqarib borgan. Dastasining bir qismi saqlanib qolgan, unda tig'ni mustahkamlashda ishlatilgan mixchalar ham qayd etildi.

Xullas, Toshkent vohasida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida antik davrda ko'chmanchi chorvador qabilalarning dehqonchilik vohalari tomon yoppasiga kirib kelishi natijasida yana ham kuchayganligi aniqlangan. Natijada, Toshkent vohasida Qovunchi madaniyatiga xos moddiy madaniyat namunalari keng yoyiladi. Ko'plab aholining kirib kelishi birlamchi ahamiyat kasb etmasada, mahalliy madaniyat namunalariidagi sifat o'zgarishlariga katta ta'sir o'tkazgan. Ayni paytda, dashtdan kirib kelgan aholining sekin-asta o'troqlashib, mahalliy aholi bilan qorishib borishi, vohada etnik va ijtimoiy siyosiy hayotning yanada jonlanishiga sabab bo'lgan.